



I S T E ' M O L B O Z O R I


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-oktyabr

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida 3987,7 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,2 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 18,9 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,2 foizga ko'payishiga olib keldi.

Xorazm viloyati shahar va tumanlar kesimida 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shma-gan holda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (34,8 foiz), Xazorasp tumani (11,9 foiz), Urganch tumani (9,1 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 106,5 foizni tashkil qilib, 2197,0 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-oktyabr oyida 1698,9 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (9855,7 ming. so'm), Gurlan tumanida (2153,1 ming. so'm) va Yangiariq tumanı (2000,7 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 67,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,5 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,7 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	9855,7	123,6
Xiva shahar	1940,5	107,4
Bog'ot tuman	1150,5	101,2
Gurlan tuman	2153,1	101,0
Qo'shko'pir tuman	1025,4	100,8
Urganch tuman	1899,4	100,4
Xazorasp tuman	1973,0	100,8
Xonqa tuman	1357,6	100,4
Xiva tuman	736,1	102,4
Shovot tuman	1378,5	103,0
Yangiariq tuman	2000,7	100,5
Yangibozor tuman	1454,9	100,8

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,3 foizni tashkil qiladi.

Umumi chakana savdo tovar aylanmasining 71,0 foizini tashkil qiladi.

Kichik tadbirkorlik umumi tovar aylanmasining deyarli 403,7 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,1 foizni tashkil etadi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh. Gadaniyazov
(0371) 230-87-68